


## FARG'ONA VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

\* tezkor ma'lumot

(2019 - yil yanvar-oktabr)


2019-yil yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 1 159,0 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,5% ga kopaydi. Shu jumladan, eksport hajmi 483,8 mln. AQSh dollarga (14,1 % ga o'sdi) va import hajmi 675,2 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 97,0 % ga) yetdi. Tashqi savdo saldosi -191,4 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

**\*Farg'ona viloyati tashqi savdo aylanmasi**  
(mln. AQSh dollari)



So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo'shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo'naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

**2018-2019 yillarda tovar va xizmatlarning eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi**  
 (mln. AQSh dollar'i)



2019-yil yanvar-oktabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning oktabr oyida ham o'tgan yilning mos davriga nisbatan deyarli o'zgarishsiz qolmoqda.

**Viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar**

(mln. AQSh dollar'i)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, %
Xitoy	331,2	88,5	242,7	28,6
Rossiya	220	110,9	109,1	19,0
Qozog'iston	132,9	44,3	88,6	11,5
Qirg'iziston	130,1	96,5	33,6	11,2
Turkiya	85,4	50,0	35,4	7,4
Tojikiston	31,8	11,1	20,7	2,7
Germaniya	21,6	0,7	20,9	1,9

(mln. AQSh dollari)

<b>Davlat nomi</b>	<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	<b>Eksport</b>	<b>Import</b>	<b>Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, %</b>
Koreya Respublikasi	26,1	4,5	21,6	2,3
Polsha	20,2	14,4	5,8	1,7
Latviya	15,8	1,1	14,7	1,4
Ukraina	10,5	6,8	3,7	0,9
Misr	10,6	10,2	0,4	0,9
Litva	9,7	0,5	9,2	0,8
Yaponiya	16,2	0,4	15,8	1,4
Bangladesh	9,3	9,3	-	0,8
Afg'oniston	11,2	11,2	-	1,0
Belgiya	2,9	2,4	0,5	0,3
Italiya	4,2	0,6	3,6	0,4
Turkmaniston	6,7	0,8	5,9	0,6
Eron	4,2	0,8	3,4	0,4
Belarusiya	3,9	1,6	2,3	0,3
Vietnam	5,1	4,9	0,2	0,4
Xindiston	3,1	0,2	2,9	0,3


Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019-yil yanvar-oktabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 46,3 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 86,2 % ni tashkil etdi. Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2019-yilning yanvar-oktabr oylarida o'tgan yil shu davrga nisbatan 125,2 % oshgan bo'lsa, viloyatning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi esa 53,7 ga yetdi.

## EKSPORT.


2019-yil yanvar-oktabr oylarida eksport hajmi 483,8 mln. AQSh dollarga (2018 - yilning shu davriga nisbatan 14,1 % ga o'sdi) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 98,4 % ulushga ega, bular asosan oziq-ovqat mahsulotlari (42,2 %), energiya manbaalari va neft mahsulotlari (3,7 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (0,5 %), qora va rangli metallar (0,1 %), mashina va uskynalar (0,1 %), shuningdek xizmatlar eksporti (1,7 %) va boshqalar (51,7 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### **Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (mln.AQSh dollar)**

**2018 - yil (yanvar-oktabr)**



**2019 - yil (yanvar-oktabr)**




- Paxta hom ashyosi
- Oziq-ovqat mahsulotlari
- Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar
- Energiya manbalari va neft mahsulotlari
- Qora va rangli metallar
- Mashina va asbob-uskunalar
- Xizmatlar
- Boshqalar

**Eksport tarkibi**

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o' tan yilga nisbatan, %	umumiylajmnganisbatan, %	mln. AQSh doll.	o' tan yilga nisbatan, %	umumiylajmnganisbatan, %	mln. AQSh doll.	o' tan yilga nisbatan, %	umumiylajmnganisbatan, %
<b>Eksport</b>	<b>483,8</b>	<b>114,1</b>	<b>100</b>	<b>272,7</b>	<b>120,3</b>	<b>100</b>	<b>211,1</b>	<b>107,0</b>	<b>100</b>
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	204,3	150,3	42, 2	181,4	139,7	66,5	22,9	3,7M	10,9
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	2,5	99,1	0,5	2,5	106,8	0,9	0,0	0,0	0,0
<b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b>	18,0	78,7	3,7	9,3	79,2	3,5	8,7	78,1	4,1
<b>Qora va rangli metallar</b>	0,4	15M	0,1	0,4	15 M	0,1	0,0	0,0	0,0
<b>Mashina va asbob - uskunalar</b>	0,6	101,1	0,1	0,5	84,7	0,2	0,1	4,3M	0,1
<b>Xizmatlar</b>	<b>8,0</b>	<b>116,3</b>	<b>1,7</b>	<b>5,0</b>	<b>97,7</b>	<b>1,9</b>	<b>3,0</b>	<b>170,0</b>	<b>1,4</b>
<b>Boshqalar</b>	250,0	98,4	51, 7	73,6	95,5	26,9	176,4	99,6	83,5

### **Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan,%)**




Shuningdek, tovar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 - yilning yanvar-oktabr oylarida eksport qilingan tovar va xizmatlar o'tgan yilning yanvar- oktabr oylariga nisbatan 4,1 % ga osdi.


Xizmatlar eksporti hajmi 8,0 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 1,7 % tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,7 martaga ko'payganligi kuzatildi.

Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, sog'liqni saqlash bo'yicha xizmatlar hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.

**2018-2019 yanvar-oktabr oylarida tovarlar va xizmatlar eksporti**  
 ( mln. AQSh dolları)



**Viloyat eksportida asosiy yirik hamkor davlatlarning ulushi**  
 (yanvar-oktabr)



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Qirg'iziston va Xitoy Xalq Respublikasi hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 50,4 % ini tashkil qiladi. Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

**Farg‘ona viloyatinining  
asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi**

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, %		O‘rnii	
	2018- yil.	2019- yil.	2018-yil.	2019-yil.	2018- yil.	2019-yil.
Rossiya	109,8	110,9	25,9	22,9	1	1
Qirg‘iziston	34,7	96,5	8,2	19,9	4	2
Xitoy	95,2	88,5	22,5	18,3	2	3
Turkiya	27,1	50,0	6,4	10,3	5	4
Qozog‘iston	67,9	44,3	16,0	9,2	3	5
Polsha	16,9	14,4	4,0	3,0	6	6
Tojikiston	5,9	11,1	1,4	2,3	8	7
Misr	2,1	10,2	0,5	2,1	9	8
Bangladesh	15,3	9,3	3,6	1,9	7	9
Ukraina	3,7	6,8	0,9	1,4	13	10
Afg`oniston	4,0	11,2	0,9	2,3	12	11
Vietnam	4,5	4,9	1,1	1,0	11	12
Koreya Respublikasi	4,9	4,5	1,2	0,9	10	13
Belgiya	1,9	2,4	0,5	0,5	15	14
Marokko	1,2	2,5	0,3	0,5	16	15
Belorys	2,7	1,6	0,7	0,3	14	16

**Farg‘ona viloyatining ayrim davlatlar  
bilan eksport tarkibi**  
(yanvar-oktabr )

( mln. AQSh doll.)

	Rossiya Federatsiyasi		Qirg‘iziston Respublikasi	
	2018- yil.	2019- yil.	2018- yil.	2019- yil.
<b>Jami eksport</b>	<b>109,8</b>	<b>110,9</b>	<b>34,7</b>	<b>96,5</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari	42,5	51,4	24,9	85,4
Kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan buvumlar	0,03	0,004	1,4	1,4
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	-	2,6	4,4	1,6
Qora va rangli metallar	-	0,1	0,01	0,03
Mashina va uskunalar	0,4	0,3	0,09	0,04
Xizmatlar	5,0	4,9	0,4	0,1
Boshqalar	61,7	51,6	3,8	7,9

**Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti**

2019-yilning yanvar-oktabr oylarida jami 207,3 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 182,5 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o‘sish sur’ati 6,8 % o‘sidi). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019-yilning yanvar-oktabr oylarida 73,3 ming tonnadan ko‘proq sabzavotlar 46,8 mln. AQSh dollariga yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 27,3 ming tonnaga ko‘p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 100,9 ming tonna meva va rezavorlar 100,5 mln. AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 27,4 ming tonnaga ko'pdirdi.

### Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi



Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2019-yilning yanvar-oktabr oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 182,5 mln .AQSh dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,4 martaga ko'paydi).

**Viloyatimizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi**


Davlat nomi	2018- yil yanvar-oktabr			2019- yil yanvar- oktabr		
	Ming. tonna	Ming. AQSh,doll	Ulushi, %	Ming. tonna	Ming. AQSh,doll	Ulushi, %
Qozog'iston	53,4	60,1	44,8	69,3	39,2	21,5
Rossiya federatsiyasi	58,0	42,0	31,4	77,6	50,6	27,7
Qirg'iziston	25,4	24,6	18,4	46,3	83,7	45,9
Tojikiston	0,4	0,3	0,2	0,6	0,5	0,3
Ukraina	1,7	1,1	0,8	7,6	3,2	1,7
Xitoy XR	0,2	0,3	0,2	0,3	1,3	0,7

**IMPORT**


Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida import hajmi 675,2 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 97,0 %) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (40,9 %), energiya manbalari va neft maxsulotlari (8,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari (9,0 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (11,1 %), qora va rangli metall (9,9 %), import xizmati (1,3 %) hamda boshqalar (19,0 %) hisobiga to'g'ri keldi.

### Tovar va xizmatlar importi tarkibi (mln.AQSh dollar)

**2018- yil  
yanvar-oktabr**



**2019- yil  
yanvar-oktabr**



**Oziq-ovqat mahsulotlari**

**Kimyo mahsulotlari va buyumlari**

**Energiya manbaalari va neft mahsulotlari**

**Qora va rangli metallar**

**Mashina va asbob-uskunalar Xizmatlar Boshqalar**

### Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari		Boshqa davlatlar			
	mln. AQSh doll.	o' tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o' tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o' tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
<b>Import</b>	<b>675,2</b>	<b>97,0</b>	<b>100</b>	<b>264,0</b>	<b>66,7</b>	<b>100</b>	<b>411,2</b>	<b>137,2</b>	<b>100</b>


<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	60,8	164,8	9,0	48,2	148,6	18,3	12,6	101,2	3,1
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	74,8	135,7	11,1	18,4	117,2	7,0	56,4	129,5	13,7
<b>Energiya</b>	59,2	30,6	8,8	58,8	25,0	22,3	0,4	105,7	0,1

**manbaalari va  
neft  
mahsulotlari**

<b>Qora va rangli metallar</b>	67,1	99,3	9,9	37,0	156,5	13,9	30,1	68,6	7,3
<b>Mashina va asbob- uskunalar</b>	276,3	136,5	40,9	8,7	123,3	3,3	267,6	159,0	65,1
<b>Xizmatlar</b>	8,5	156,4	1,3	0,7	4,1 M	0,3	7,8	143,0	1,9
<b>Boshqalar</b>	128,5	122,2	19,0	92,2	113,1	34,9	36,3	141,0	8,8

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-oktabr oylari davomida eng past o'sish sur'atlari kuzatilgan.

**Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi**  
(o'tgan yilga nisbatan, %)



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019-yilning yanvar-oktabr oylarida import qilingan tovar va xizmatlar 2018 -yilning mos davriga nisbatan 97,0 % ga kamaygan.

**Farg'ona viloyatiga  
asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi**


Davlat nomi	Mln. AQSh dollari.		Ulushi, %		O'rni	
	2018-yil.	2019- yil.	2018-yil.	2019-yil.	2018-yil.	2019-yil.
Xitoy	174,1	242,7	25,0	36,0	2	1
Rossiya	190,4	109,1	27,4	16,2	1	2
Qozog'iston	148,2	88,6	21,3	13,1	3	3
Turkiya	17,4	35,4	2,5	5,2	7	4
Qirg'iziston	33,1	33,6	4,8	5,0	4	5
Koreya	19,5	21,6	2,8	3,2	8	6
Tojikiston	8,6	20,8	1,2	3,1	11	7
Germaniya	18,1	20,9	2,6	3,1	5	8
Yaponiya	6,0	15,8	0,9	2,3	23	9
Latviya	8,2	14,7	1,2	2,2	10	10
Litva	4,1	9,2	0,6	1,4	15	11
Polsha	1,3	5,8	0,2	0,9	21	12
Ukraina	3,9	3,7	0,6	0,6	18	13
Italiya	5,4	3,6	0,8	0,5	16	14
Turkmaniston	8,6	5,9	1,2	0,9	9	15
Hindiston	12,1	2,9	1,7	0,4	6	16
Eron	2,8	3,4	0,4	0,5	19	17
Tayvan	0,8	2,7	0,1	0,4	22	18
Niderlandiya	3,5	2,0	0,5	0,3	17	19
Belorus	2,3	2,3	0,3	0,3	20	20

## Xizmatlar importi tarkibi, (%)

2019- yil yanvar-oktabr


Xizmatlar importi hajmi 8,5 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 1,3 % ini tashkil etadi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari,moliya, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo‘ldi.

### 2018-2019-yillarda tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi ( mln. AQSh dollari)



Shu bilan birga ta’kidlab o‘tish kerakki, 2019-yilning o‘tgan davri mobaynida viloyatga import qilinayotgan tovar va xizmatlar o‘tgan yilning yanvar -oktabr davriga nisbatan 20,6 mln. AQSh dollarga kam import qilindi va 675,2 mln.AQSh dollarini tashkil etdi.

**Viloyat importida asosiy  
hamkor davlatlarning tovar va xizmatlar hajmi  
2019-yil yanvar-oktabr  
(mln. AQSh dollari)**



2019-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatimizga 63 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi hajmi amalga oshirilgan. Shulardan 11 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Qozog'iston va Qirg'iziston, Germaniya va Korea Respublikasi, Latviya, Tojikiston Respublikasi, Litva, Yaponiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 587,4 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 92,2 % ni tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.:71-230-87-18**